



BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

**BUXORO VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

**2023- YIL
YANVAR-SENTABR**

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Buxoro viloyatida jami **6 771,4** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **102,9 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Norasmiy sektor

15,0

29,4

55,6

Yirik korxona va
tashkilotlar

Kichik korxona
va mikrofirmalar

**2023- yil 1- oktabr holatiga
ko‘ra qurilish ishlari
bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan
korxona va tashkilotlar, birlikda**



Yillar kesimida soni



**Bino va inshootlar
qurish**

1 480


**Fuqarolik obyektlarini
qurish**

468

**Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari**

713

Hududlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o’sishiga o’zining munosib hissasini qo’shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda o’sish sur’ati 89,4 foizni tashkil qildi.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda:

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 55,6 foiz ulushi tashkil etib, o’sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 82,8 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 17,6 foiz ulushi tashkil etib, o’sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 133,7 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 26,8 foiz ulushni va 85,1 foiz o’sish sur’atini tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o‘tgan yiliga nisbatan, % da
	01.10.2022- y.	01.10.2023- y.	
Buxoro viloyati	2 975	2 661	89,4
Buxoro shahri	958	833	87,0
Kogon shahri	133	110	82,7
<i>tumanlar:</i>			
Olot	80	72	90,0
Buxoro	226	190	84,1
Vobkent	128	116	90,6
G‘ijduvon	201	152	75,6
Kogon	148	144	97,3
Qorako‘l	115	116	100,9
Qorovulbozor	59	55	93,2
Peshko‘	184	170	92,4
Romitan	262	254	96,9
Jondor	236	212	89,8
Shofirkon	245	237	96,7



**2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra
Buxoro viloyatida
faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish
korxonalari ulushi, % da**




Buxoro sh. (31,3)



Romitan t. (9,5)



Shofirkon t. (8,9)



Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-sentabr uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	6 771,4	1 014,9	3 766,3	1 990,2
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	1652,0	288,9	998,2	364,9
Kogon sh.	338,1	103,2	192,4	42,5
<i>tuman:</i>				
Olot	388,1	98,9	123,7	165,5
Buxoro	412,9	14,9	228,4	169,6
Vobkent	338,4	-	236,4	102
G'ijduvon	487,5	0,1	223,8	263,6
Kogon	566,9	65,3	357,5	144,1
Qorako'l	266,2	7,1	119,9	139,2
Qorovulbozor	294,0	173,5	100,1	20,4
Peshko'	434,9	-	284,8	150,1
Romitan	711,1	246,1	284,1	180,9
Jondor	391,1	-	240,4	150,7
Shofirkon	490,2	16,9	376,6	96,7


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 014,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning mos davriga nisbatan 90,8 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 2,1 % punktga kamayib, 15,0 % ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari

2023- yil yanvar-sentabr uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 59,0 % i yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 66,4%), Romitan tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 34,6% i yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 164,5 %) ga to'g'ri keldi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 55,6 % i to'g'ri kelib, 2022- yilning ko'rsatkichiga nisbatan 1,2 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,2% ni tashkil etgan holda 3 766,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



55,6

2023-yil
yanvar-sentabr

54,4


2022- yil
yanvar-sentabr



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Shofirkon tumanida (376,6 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 76,8 %), Vobkent tumanida (236,3 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 69,8 %) va Peshko' tumanida (284,8 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 65,5 %) ga to'g'ri keldi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 29,4 % ni tashkil etdi yoki 1 990,2 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 344,9 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 6 426,5 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 5,1 % va 94,9 % ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2023- yil yanvar-sentabr oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **71,4 %** i yoki **4 835,7 mlrd. so'm** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

12,7 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **612,5 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **12,7 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **2 500,8 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **51,7 %** ni tashkil etdi.

51,7 %

35,6%

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 722,4 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **35,6 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-sentabr oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Buxoro viloyati	6 771,4	102,9	100,0
<i>shahar:</i>			
Buxoro sh.	1 652,0	108,2	24,5
Kogon sh.	338,1	73,6	5,0
<i>tuman:</i>			
Olot	388,1	104,2	5,7
Buxoro	412,9	96,6	6,1
Vobkent	338,4	101,1	5,0
G'ijduvon	487,5	103,8	7,2
Kogon	566,9	114,4	8,4
Qorako'l	266,2	108,6	3,9
Qorovulbozor	294,0	81,7	4,3
Peshko'	434,9	97,4	6,4
Romitan	711,1	120,4	10,5
Jondor	391,1	107,3	5,8
Shofirkon	490,2	100,9	7,2



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da

10,1

2022- yil
yanvar-sentabr

6,9

44,8

46,3

45,1

46,8

2023- yil
yanvar-sentabr



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona
va mikrofirmalar



Norasmiy
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 6,9 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,2 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,5 % punktga ko'payib, 46,3 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,7 % punktga ko'payib, 46,8 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 24,4 % ni tashkil etdi va 2022-yilga nisbatan 2,9 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 75,6 % (2,9 % punktga kamayish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da




Yirik qurilish tashkilotlari
2022-yil yanvar-sentabr



Kichik korxona va mikrofirmalar
2023-yil yanvar-sentabr

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 7,1 % punktga kamaydi va 39,3 % ni tashkil etdi. Qolgan 60,7 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 7,1 % punktga ko'paydi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-sentabr


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	6 771,4	4 254,1	1 813,1	704,2
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	1 652,0	888,8	633,7	129,5
Kogon sh.	338,1	146,9	138,2	53,0
<i>tuman:</i>				
Olot	388,1	238,1	43,1	106,9
Buxoro	412,9	293,1	93,8	26,0
Vobkent	338,4	248,3	69,5	20,6
G'ijduvon	487,5	384,0	81,6	21,9
Kogon	566,9	338,5	185,7	42,7
Qorako'l	266,2	198,7	52,6	14,9
Qorovulbozor	294,0	114,2	27,9	151,9
Peshko'	434,9	287,1	114,7	33,1
Romitan	711,1	564,1	116,3	30,7
Jondor	391,1	264,6	99,0	27,5
Shofirkon	490,2	287,7	157,0	45,5



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-sentabr



ulushi % da



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-sentabr uchun

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	3 348,4	101,2
<i>shahar:</i>		
Buxoro sh.	5 677,1	106,2
Kogon sh.	5 275,4	72,2
<i>tuman:</i>		
Olot	3 753,0	102,7
Buxoro	2 344,9	95,0
Vobkent	2 303,3	99,4
G'ijduvon	1 527,1	102,1
Kogon	6 805,8	112,0
Qorako'l	1 561,3	107,2
Qorovulbozor	14 921,4	79,6
Peshko'	3 353,3	95,8
Romitan	4 744,0	118,2
Jondor	2 132,5	105,5
Shofirkon	2 648,3	99,6



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-sentabr uchun



**Hududlar kesimida 2023- yil yanvar-sentabr oylariida aholi
jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni
Qorovulbozor tumani — 14 921,4 ming so'm (yoki 2022- yilning
mos davriga nisbatan 79,6 %), undan keyin mos ravishda
Kogon tumani – 6 805,8 ming so'm (yoki 112,0 %), Buxoro
shahri – 5 677,1 ming so'm (yoki 106,2 %), Kogon shahri –
5 275,4 ming so'm (yoki 72,2 %) Romitan tumani – 4 744,0
ming so'm (yoki 118,2 %) va egalladi.**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(65) 223-81-99**